KRIPTO-AKTIVLAR BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY MUAMMOLARI

Voxidov Muxtorjon Abdixalil o‘g‘li

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kripto-aktivlar bilan bog‘liq jinoyatlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholash masalalari ko‘rib chiqilgan. Kripto-aktivlarning chegarasizligi va markazlashmagani ularni o‘g‘rilik, firibgarlik yoki pul yuvish jinoyatlari qatoriga kiritishda qonunchilik va sud amaliyotida qanday muammolar tug‘dirayotgani tahlil qilingan.*

Shuningdek, Germaniya, Rossiya, Buyuk Britaniya va Vengriyaning bu boradagi ijobiy hamda murakkab tajribasi qiyosiy solishtirilib, O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar berilgan. Xususan, raqamli aktivlarni rasman “mulk” sifatida belgilash hamda ilg‘or xalqaro standartlarni amaliyotga tatbiq etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar*: kripto-aktiv, NFT, virtual mulk, kvalifikatsiya, kiberjinoyat, wash trading, rug pull, FATF, MiCA reglamenti, jinoiy daromadlarni legallashtirish shuni korchi.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены вопросы правовой квалификации преступлений, связанных с криптоактивами. Проанализированы проблемы, возникающие в законодательстве и судебной практике при отнесении децентрализованных и трансграничных криптоактивов к объектам кражи, мошенничества или отмывания денег.*

Также сопоставлен положительный и сложный опыт таких зарубежных стран, как Германия, Россия, Великобритания и Венгрия, и предложены конкретные рекомендации по совершенствованию законодательства Республики Узбекистан. В частности, указаны пути официального признания цифровых активов «имуществом» и внедрения передовых международных стандартов в практику.

Ключевые слова: *криптоактив, NFT, виртуальное имущество, квалификация, киберпреступление, wash trading, rug pull, FATF, регламент MiCA, легализация (отмывание) преступных доходов.*

Abstract. *This article examines the issues of legal qualification of crimes related to crypto-assets. It analyzes the problems arising in legislation and judicial practice when classifying decentralized and cross-border crypto-assets as objects of theft, fraud, or money laundering. Furthermore, the positive and complex experiences of foreign countries such as Germany, Russia, the United Kingdom, and Hungary are comparatively reviewed, and specific proposals for improving the legislation of the Republic of Uzbekistan are put forward. In particular, ways to officially recognize digital assets as 'property' and implement advanced international standards into practice are outlined.*

Keywords: *crypto-asset, NFT, virtual property, qualification, cybercrime, wash trading, rug pull, FATF, MiCA regulation, money laundering.*

Zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda raqamli aktivlar, kripto-aktivlar va NFT (Non-Fungible Token) tushunchalari global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi [1]. Jahon iqtisodiyotining raqamlashuvi sharoitida an’anaviy mulkiy munosabatlar tubdan transformatsiyaga uchramoqda, bu esa o‘z navbatida kripto-aktivlarni global moliyaviy tizimning muhim elementiga aylantirdi.

Biroq, ushbu aktivlarning transchegaraviy xarakteri, anonimligi va markazlashmagan tabiati (DeFi) ulardan jinoiy maqsadlarda foydalanish xavfini sezilarli darajada oshirmoqda. Xususan, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, kiber-firibgarlik, fishing va boshqa turdagi kiberjinoyatlar jinoiy faoliyatning yangi shakllari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, milliy qonunchilikda raqamli aktivlarning huquqiy maqomini aniqlash va ularga nisbatan sodir etiladigan tajovuzlarni to‘g‘ri malakalash bugungi kunning eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro miqyosda ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda FATF (Financial Action Task Force) standartlari markaziy o‘rinni egallaydi. Guruhning 15-tavsiyasi va unga berilgan sharhlarda virtual aktivlar hamda virtual aktivlar provayderlari (VASP) faoliyati qat’iy tartibga solinishi belgilangan. Mazkur standartlar davlatlardan tavakkalchilikka asoslangan yondashuv tamoyili asosida xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha samarali choralarni ko‘rishni taqozo etadi. Shuningdek, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha Budapesht konvensiyasi raqamli dalillarni yig‘ish va davlatlararo tezkor ma’lumot almashish mexanizmlarini belgilab beruvchi muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar, jumladan AQSH va Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli aktivlar bilan bog‘liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda funksional yondashuv ustuvorlik qilmoqda. Masalan, AQSHda aktivning tabiatiga qarab, u tovar yoki qimmatli qog‘oz sifatida baholanadi. MDH mamlakatlari, xususan Qozog‘iston va Rossiya tajribasida esa raqamli aktivlarni mulkning maxsus turi sifatida e’tirof etilishi ularni o‘g‘rilik yoki firibgarlik predmeti sifatida kvalifikatsiya qilish imkonini yaratdi.

Zamonaviy moliya bozori o‘zgarib borayotgan sharoitda Markazlashmagan moliya (DeFi) tizimi an’anaviy moliyadan o‘zining tuzilishi bilan farq qiladi. Bu tizimda banklar yoki boshqa vositachilar o‘rnini Markazlashmagan avtonom tashkilotlar (DAO) va boshqaruv tokenlari egalari bajaradi. DeFi ekotizimida xavfsizlik va tranzaksiyalar shaffofligi tarqatilgan ledger texnologiyasi (DLT), ayniqsa blokcheyn orqali ta’minlanadi. Raqamli aktivlarni huquqiy jihatdan aniqlashda Yevropa Ittifoqining MiCA reglamenti muhim xalqaro standart hisoblanadi. Unga ko‘ra, *“kripto-aktiv — bu DLT texnologiyasi orqali elektron shaklda uzatilishi va saqlanishi mumkin bo‘lgan qiymat yoki huquqlarning raqamli ko‘rinishidir”*.

O‘zbekiston Respublikasida ushbu xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish jarayoni izchil amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-sonli qarori bilan raqamli aktivlar aylanmasi sohasida vakolatli organ — Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) belgilandi [2]. Shunga qaramay, amaldagi Jinoyat kodeksida raqamli aktiv tushunchasining jinoiy-huquqiy maqomi hali to‘liq unifikatsiya qilinmagan. Bu esa sud-tergov amaliyotida raqamli hamyonlardan mablag‘larni o‘g‘irlash yoki ularni legallashtirish holatlariga yagona huquqiy baho berishda muayyan murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda.

Raqamli aktivlar sohasidagi xavfsizlikni ta’minlashda nafaqat iqtisodiy, balki yangi texnik yechimlarning huquqiy ahamiyatini ham hisobga olish lozim. Masalan, Vitalik Buterin tomonidan ilgari surilgan Soulbound Tokens (SBT) konsepsiyasi kelajakda blokcheyn asosidagi shaxsiy ma’lumotlarni soxtalashtirish bilan bog‘liq kiberjinoyatlarning oldini olishda muhim huquqiy poydevor bo‘lishi mumkin [3].

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi va sud amaliyotida kripto-aktivlarga nisbatan yondashuv o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Hozirgi kunda sudlar tomonidan kripto-aktivlarni o‘g‘irlik (JK 169-moddasi) yoki firibgarlik (JK 168-moddasi) predmeti sifatida malakalashda muayyan to‘siqlar mavjud. Buning asosiy sababi — kripto-aktivlarning fuqarolik qonunchiligida hali

ham klassik “mulk” tushunchasiga to‘liq moslashtirilmaganidir. Sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, kripto-aktivlar bilan bog‘liq noqonuniy harakatlar asosan JKning 278^8-moddasi (Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi qonunchilikni buzish) bo‘yicha baholanmoqda [4]. Shuningdek, kripto-aktivlar bilan bog‘liq harakatlarni JKning 243-moddasi (Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish) [5] bilan malakalashda ham qiyinchiliklar mavjud, chunki mazkur moddaning predmeti “mulk” bo‘lishi shart.

Raqamli aktivlar aylanmasi bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birini egallagan Rossiya Federatsiyasi tajribasi ushbu sohadagi jinoiy sxemalarni kvalifikatsiya qilishda o‘ziga xos amaliy bazani shakllantirdi. Chainalysis va Rosfinmonitoring ma’lumotlariga ko‘ra, kriptovalyuta orqali yuvilgan mablag‘lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda [6]. Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining qarorlariga muvofiq, kriptovalyuta RF JKning 174 va 174.1-moddalari ma’nosida jinoiy daromadlarni yashirish obyekti sifatida tan olingan. Shuningdek, raqamli aktivlar RF JK 104.1-moddasiga binoan “boshqa mulk” sifatida tasniflanib, jinoiy yo‘l bilan topilgan taqdirda musodara qilinishi belgilangan [7].

A.O. Galimova va boshqa tadqiqotchilarning fikricha, kriptovalyutani o‘g‘irlashni kompyuter ma’lumotlariga ta’sir o‘tkazish orqali sodir etiladigan firibgarlik (kompyuter firibgarligi) sifatida baholash eng to‘g‘ri yondashuvdir [8]. Masalan, Surgut shahar sudi amaliyotida jabrlanuvchidan olingan “BTC-kod” mulkiy qiymatga ega bo‘lgan predmet sifatida tan olingan va zarar miqdori bozor qiymati asosida belgilangan [9].

Germaniya Federativ Respublikasi tajribasi raqamli aktivlarni kvalifikatsiya qilishda jiddiy huquqiy muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Xususan, Germaniya Jinoyat kodeksi (StGB) normalari raqamli aktivlarning texnologik tabiatiga to‘liq moslashmagan.

Braunshveyg Oliy mintaqaviy sudining 2024-yil 18-sentabrdagi (1 Ws 185/24) qarori StGB normalari blokcheyn texnologiyasining markazsizlashgan tabiatiga mos kelmasligini tasdiqladi [10]. Garchi shaxsiy kalitlarni (private keys) ruxsatsiz qo‘lga kiritish “ma’lumotlar josusligi” sifatida jazolansa-da, aktivni boshqa hamyonga o‘tkazish bo‘yicha jinoiy javobgarlikda bo‘shliq mavjud. Blokcheyn tizimida markaziy nazorat organi mavjud emasligi va har bir tranzaksiya tarmoq konsensusi tomonidan “haqiqiy” deb tan olinishi sababli, nemis sudyalari bu kabi qilmishlarni an’anaviy o‘g‘irlik yoki kompyuter firibgarligi sifatida malakalashni rad etmoqdalar. Bu esa qonunchilikka blokcheyn texnologiyasining xususiyatlarini hisobga oluvchi yangi normalar kiritish zarurligini ko‘rsatadi [11].

Buyuk Britaniya kabi yurisdiksiyalar ancha moslashuvchan yondashuvni qo‘llamoqda. 2023-yilda Britaniya Huquq Komissiyasi kripto-aktivlarni shaxsiy mulk sifatida tan olishni ma’qullagan bo‘lsa, Apellyatsiya sudi bitkoinni qonuniy mulk deb tasdiqladi [12]. Vengriya qonunchiligida esa 2025-yildan boshlab raqamli aktivlarni konvertatsiya qilish uchun qat’iy muvofiqlik sertifikatlari talab etilishi va ruxsatsiz faoliyat uchun 2 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazolari joriy etilgan [13].

Xulosa

Xalqaro tajriba va milliy amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli aktivlarni jinoiy-huquqiy muhofaza qilishda ularni “boshqa mulk” yoki “mulkiy huquq” sifatida milliy qonunchilikda aniq e’tirof etish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Kontinental modeldagi qator cheklovlar (Germaniya tajribasi kabi) huquqiy bo‘shliqlarni keltirib chiqarayotgan bir paytda, pragmatik yondashuv (Rossiya, Buyuk Britaniya tajribasi) raqamli aktivlarni talon-toroj qilish va legallashtirish jinoyatlariga qarshi samarali kurashish imkonini bermoqda.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga va Oliy sud Plenumining tushuntirishlariga quyidagi takliflarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

1. Jinoyat kodeksining mulkiy jinoyatlarga oid moddalaridagi “o‘zganing mulki” tushunchasiga raqamli aktivlar va kripto-aktivlarni ham qamrab oluvchi rasmiy huquqiy sharh berish.
2. Raqamli hamyonlardan maxfiy kalitlarni noqonuniy egallash orqali aktivlarni o‘zlashtirish holatlarini kompyuter axborotiga ruxsatsiz kirish va o‘zganing mulkini o‘zlashtirish majmui sifatida kvalifikatsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.
3. Jinoiy daromadlarni legallashtirish (JK 243-moddasi) va musodara qilish institutlarida raqamli aktivlarning huquqiy maqomini qat’iy belgilash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son. // https://lex.uz/docs/-3806053
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-son. // https://lex.uz/docs/-3806053

3. Vitalik Buterin. Soulbound Tokens (SBT) concept overview. // https://en.wikipedia.org/wiki/Vitalik_Buterin

4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. // https://lex.uz/docs/-111453

5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. // https://lex.uz/docs/-111453

6. Теневой оборот криптовалюты в России: как закон борется с криминалом в 2026 году. // https://mosdigitals.ru/blog/tenevoj-oborot-kriptovalyuty-v-rossii-kak-zakon-boretsya-s-kriminalom-v-2026-godu

7. Долгиева М.М. Конфискация криптовалюты // Законность. – 2018. – № 11. – С. 45–49.

8. Трунцевский Ю.В., Сухаренко А.Н. Противодействие использованию криптовалюты в незаконных целях: состояние и перспективы // Международное публичное и частное право. – 2019. – № 1. – С. 43–47.

9. Теневой оборот криптовалюты в России: как закон борется с криминалом в 2026 году. // https://mosdigitals.ru/blog/tenevoj-oborot-kriptovalyuty-v-rossii-kak-zakon-boretsya-s-kriminalom-v-2026-godu

10. Strafbarkeitslücken beim Kryptodiebstahl: Analyse der Entscheidung des OLG Braunschweig vom 18.09.2024 (1 Ws 185/24) // KripoZ – Zeitschrift für die gesamte Kriminalwissenschaft. – 2025.

11. Legal loophole leaves Germany unable to prosecute ‘crypto’ theft // CoinGeek, 1 August 2025. // https://coingeek.com/legal-loophole-leaves-germany-unable-to-prosecute-crypto-theft/

12. UK Law Commission Report on Digital Assets as Personal Property. – London, 2023.

13. Hungary to criminalise crypto-asset exchange violations with restrictive validation obligation for service providers and clients // CMS Law, 2024. // https://cms.law/en/hun/legal-updates/hungary-to-criminalise-crypto-asset-exchange-violations-with-restrictive-validation-obligation-for-service-providers-and-clients